



SUT SOG'IN QORAMOLLARIDA KETOZ KASALLIGINI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR VA UNI NAZORAT QILISH YO'LLARI

Umaraliyev Nazarbek Azizbek o'g'li

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Zooinjneriya
ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya

Sigirlar ketozi – polietiologik kasallik bo'lib, kasallikning kelib chiqishida sut berishning kuchaygan davrida energiya tanqisligi, o'ta oqsilli oziqlantirish, moy kislotasi saqlovchi oziqalarning berilishi asosiy sabablar hisoblanadi. Kasallik sut berishning 6-10 haftasida, sut hosil bo'lishi uchun zarur energiyaning tanqisligi oqibatida yaqqol namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Ketozi, dag'al oziqalar, giperesteziya, tug'ruq parezi, rezistentlik

Kirish

Ketozi asosan yuqori konsentrat tipida boqish joriy etigan xo'jaliklarda hayvonlar ratsionida dag'al oziqalar etishmaganda oziqalarning katta qorinda hazmlanishining buzilishi oqibatida kuzatiladi. Ko'p hollarda sigirlarning ketozi bilan kasallanishiga tarkibida ko'p miqdorda moy va sirkal kislotasi saqlovchi oziqalar (silos, senaj, jom, barda) berilishi sabab bo'ladi.

Adabiyotlar taxlili va metodologiya

Ketozi kasalligining belgilari Yangi tuqqan sigirlarda kasallikning o'tkir kechishida vaqt-i vaqt bilan bezovtalanish, qo'zg' alish holati, teri sezuvchanligining ortishi (giperesteziya) qayd etiladi. Qo'zg' alish holati tezlikda holsizlanish bilan almashadi. Hayvon holsizlangan, uyqusiragan holatda ko'pincha yotib qoladi. Katta qorin harakati susaygan, ich qotishi yoki uzoq muddat kuchli ich ketishi kuzatiladi. Tug'ruq parezi paytidagidek soporoz yoki komatoz holati qayd etiladi. Ketozening yarim o'tkir va surunkali kechishida kasal





hayvonda teri qoplamasining ho'rpayishi, tuyoqlar yaltiroqligining pasayishi, holsizlanish, loqaydlik, o'rnidan sekin turish va sekin harakatlanish, ishtahaning o'zgarishi, omixta emlarni xohlamaslik va dag'al oziqalar, ildizmevalilarni ishtaha bilan iste'mol qilish kuzatiladi. Katta qorin harakati periodik ravishda susayadi, qisqarishlari kuchsiz, qisqa, kavsh qaytarish betartib ravishda bo'ladi. Kasallikning boshlanishida nafas tezlashgan bo'ladi. Ko'pchilik hayvonlarda semizlik darajasi va mahsuldorlik pasayadi, jinsiy sikel buziladi. Servis davri uzayadi yoki qisir qolish kuzatiladi, buzoqlar gipotrofik holatda tug'ilib, organizm rezistentligining pasayishi oqibatida hazm tizimi va boshqa kasalliklarga tez beriluvchan bo'ladi.

Muhokama

Kasallikni davolash usullari Kasal hayvonlar parhez oziqlantirilib, sifatli pichan (8- 10 kg), o't uni (2-3 kg), senaj (8-10 kg), ildizmevalilar (8-10kg) yoki kartoshka (6-8 kg), omixta emlar sifatida arpa yormasi beriladi. Oqsilli va energetik oziqlantirish maromlashtiriladi. Ratsionda oqsillar ortiqchaligi aniqlanganda omixta emlar berish kamaytirilib, sifatli pichan, senaj va ildizmevalilar bilan boyitiladi. Organizmdagi glyukoza va glikogen miqdorining me'yorida bo'lishi hazm trakti, yurak va boshqa a'zolarni me'yorda faoliyatini ta'minlash maqsadida 2-3 kun davomida, vena qon tomiriga 0,25-0,5 g/kg hisobida 10-20%-li glyukoza eritmasi kuniga 1-2 marta yuborilib turiladi. Muskul orasiga kuniga 1-2 marta 100-150 HB insulin in'eksiya qilinadi. Gidrokortizon, deksametazon kabi kortikotrop gormonal preparatlar tavsiyanomasiga ko'ra qo'llaniladi. Og'iz orqali 150-500 g qand yoki boshqa glikogen vositalari: natriy propionat, natriy laktat, propilenglikol, glitserin va boshqalar qo'llaniladi.

Xulosa

Qoramollarda, ayniqsa yuqori mahsuldor sog'in sigirlarda ketoz kasalligini oldini olishda ratsionni to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Oziqlantirishda kletchatka miqdorining, shuningdek qand va oqsil o'rtasidagi



nisbatning me'yor darajasida bo'lishi kasallikning rivojlanish xavfini kamaytiradi. Ratsionda oqsilning ortiqchaligi, energiya tanqisligi, shuningdek uzoq muddatli o'ta oqsilli yoki silos-konsentrat tipidagi oziqlantirishga yo'l qo'yish ketozning kelib chiqishiga olib kelishi mumkin. Shu bois bunday oziqlantirish turidan ehtiyot bo'lishi lozim.

Yuqori mahsuldor sigirlarning kunlik ratsionida 6–8 kg pichan, 8–9 kg lavlagi yoki 5–7 kg kartoshka bo'lishi tavsiya etiladi. Laktatsiya davrining yuqori bosqichida omixta yemlar umumiy ratsionning 40–45 foizini tashkil qilishi kerak bo'lsa, mahsuldorlik pasaygan davrda bu ko'rsatkich 25–30 foiz atrofida bo'lishi lozim.

Ratsionning quruq moddasidagi kletchatka miqdori sigirning kunlik sut mahsuldorligiga qarab belgilanadi. Agar sigir kuniga 10–20 kg sut bersa, ratsiondagi kletchatka 24–28 foiz, 21–30 kg sutda 20 foiz, 30 kg dan ortiq bo'lsa esa 16–18 foiz bo'lishi lozim. Sutdan chiqarilgan davrdagi bo'g'oz sigirlar uchun esa bu ko'rsatkich 25–30 foizni tashkil etishi zarur.

Shuningdek, ratsionda hazmlanuvchi oqsil va qandning muvozanati ham muhimdir. Har 1 gramm hazmlanuvchi proteinga 0,8–1,2 gramm qand to'g'ri kelishi, qand va kraxmalning hazmlanuvchi proteinga nisbati esa 1:1 bo'lishi kerak.

Hayvonlarga beriladigan silos sifat ko'rsatkichlariga mos bo'lishi lozim. Ularning pH darajasi 3,8–4,2 oraliq'ida bo'lishi, tarkibida esa moy kislotasi mavjud bo'lmasligi kerak. Sifatli senaj esa 45–55 foiz namlikka, pH darajasi 4,2–5,4 atrofida bo'lishi bilan birga, uning tarkibida ham moy kislotasi bo'lmasligi lozim.

Ketoz kasalligini oldini olishda rejali yaylovga chiqarish va bo'g'oz sigirlarni o'ta oqsilli hamda energiyaga boy yemlar bilan oziqlantirishdan saqlanish zarur. Bundan tashqari, ona hayvonlarni yiliga har chorakda bir marta dispanser ko'rigidan o'tkazib turish bu kasallikning profilaktikasida muhim rol o'ynaydi.

To‘g‘ri tashkil etilgan va muvozanatli ratsion, sifatli yemlardan foydalanish hamda sog‘liqni profilaktik nazorat qilish choralarini qo‘llash qoramollarda ketoz kasalligini samarali tarzda oldini olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bakanov V.N ветеринария справочник
2. Menkin V.G veterinariya asoslari
3. Mavlonov N.O Qoramolchilik

